

ELEKTRON O`QUV-USLUBIY MAJMUALARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Umarjonova Nodira Abduxamid qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)”

yo`nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ularning turlari va texnologiya ta’limiga doir elektron o`quv-uslubiy majmualarda ahamiyati, ta’lim texnologiyalarni tanlash va ulardan oqilona foydalanish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: ta’lim texnologiyasi, elektron o`quv-uslubiy majmualar, umumiy pedagogik texnologiyalar.

USE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ELECTRONIC EDUCATIONAL-METHODICAL COMPLEXES

Umarjonova Nodira Abdukhamid qizi

TDPU name after Nizami

“Theory and methodology of education and upbringing (technological education)”

1-course master’s degree

Abstract: Modern educational technologies, their types and their importance in electronic educational-methodical complexes on technology education, it is about choosing educational and using them wisely.

Key words: educational technology, electronic educational-methodical complexes, general pedagogical technologies.

Bugun jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning beminnat xizmatlari ta’rifga loyiq. Hozirgi vaqtda butun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, sifatini yaxshilash va takomillashtirish amalga oshayotganini inobatga olsak, bu jarayonni amalga oshirishda asosiy va

qo`shimcha vositalardan foydalanmaslikning iloji yo`q. Ta`lim tizimi bugungi kunning eng yangi texnologiyalarini qo`llashi natijasida ta`lim sifatini yaxshilanishi bilan bir qatorda, uning uslubiy vositalari ham kundan-kunga takomillashib bormoqda. Bugunning eng qulay uslubiy vositalaridan biri bu elektron o`quv-uslubiy majmualar bo`lsa, uning ilmiyligi, dasturiy mukammalligi nafaqat ta`lim beruvchilar, balki ta`lim oluvchilarga ham qulaylik tug`diradi. Endi elektron o`quv-uslubiy vositalarning ma`lum bir fan doirasida, masalan, texnologiya ta`limida o`rni beqiyos. Elektron o`quv-uslubiy majmualarning ilmiyligini ta`minlashda, mavzularning berilishi, ularning mukammalligi, tushunarli va faollikni takomillashtirishi yana bir muhim masala. Elektron o`quv-uslubiy majmualarda ilg`or pedagogik texnologiyalar qanchalik muhimligi haqida so`z yuritamiz.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli “Yoshlarni ma`naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risidagi” Qarori mazmunidan kelib chiqib, pedagog kadrlarni va ta`lim oluvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsion vositalarni qo`llash asosida ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta`im jarayonini yuqori darajaga olib chiqish, ta`limning ilmiylik prinsipiga alohida e`tibor qaratishga oid vazifalar belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda, texnologiya ta`limida elektron o`quv-uslubiy vositalar tayyorlashda har bir mavzu uchun yangi ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida mavzuning mukammal o`zlashtirilishini ta`minlash mumkin.

Pedagogik texnologiya-bu bilimlar o`zlashtirilishining barcha jihatlari muammolarini tahlil etish va rejalashtirish, ta`minlash, baholash va muammolar yechimini boshqarishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish usullari va vositalari, odamlar, g`oyalarni o`z ichiga oluvchi majmualashgan jarayon. Uning maqsadi ommaviy ta`lim sharoitida ta`lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta`minlash

va ta'lim oluvchilar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iborat.

Qo'llanilishi, qamrov hajmiga ko'ra ular 3 guruhga ajratiladi:

1. Umumiy pedagogik texnologiyalar-o'z ichiga yirik texnologiyalarni, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

2. Xususiy pedagogik texnologiyalar-ma'lum fan doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

3. Modulli kichik universal texnologiyalar-biror refleksi rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli fanlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar bo'lib, ular universal xarakterga ega.

Texnologiya ta'limini o'qitishda yuqoridagi barcha texnologiyalardan foydalaniladi va ularni elektron o'quv-uslubiy majmualarda qo'llashning bir necha afzalliklari ko'rib chiqamiz:

-ta'lim samaradorligini oshirish;

-o'quv jarayonini loyihalashtirish;

-o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishish yo'llarini takomillashtirish;

-o'quv jarayoni mazmuniga mos texnologiyalarni qo'llay olish;

Pedagogik texnologiya o'ziga xos bir nechta aspektlarni namoyon etadi, ya'ni:

-ilmiy aspekt-olingan bilimlarni ilmiy asoslanishi;

-tavsifiy aspekt-rejalashtirilgan o'qitishning natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtirokida algoritm jarayoni ishlab chiqilishi;

-amaliy aspekt-pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshishi,

Har bir pedagogik texnologiyalar o`zida bir necha xususiyatlarni aks ettirishi shartlidir:

-konseptuallik-har bir pedagogik texnologiyaga ta`lim maqsadlariga erishish falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarini ichiga oluvchi ilmiy konsepsiyaga tayanish hosil bo`lishi;

-tizimlilik-jarayonning mantiqiy uning hamma qismlariga bog`liq bo`lishi;

-samaralilik-mavjud natijalar bo`yicha samarali o`qitishga erishishi;

-ilmiylik-mazmunning ilmiy asoslangan bo`lishi;

-boshqaruvchanlik-o`quv jarayonini va ta`lim oluvchilarni boshqara olishi, natijalarni kuzatish, diagnostika qilish va tuzatishga erisha olishi;

-texnologik sxemaga ega ekanligi-pedagogik texnologiyaning oldindan loyihalashtirilgan va rejalashtirilgan bo`lishi;

-izchillik-berilayotgan ma`lumotlar mazmuni o`zaro bog`liq bo`lishi va bir-birini to`ldirib borishi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, nafaqat texnologiya ta`limida balki butun o`quv jarayonidagi vositalar, xususan elektron o`quv-uslubiy majmualarda pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularning mavzuga va rivojlanishi ko`zda tutilayotgan kompetensiya yoki ko`nikmalarga mos ravishda tanlab olish, ulardan foydalanish yuqori natijalarni beradi. Chunki, o`quv jarayonining samarali va maqbul tanlangan pedagogik texnologiya bilan jihozlash muvaffaqiyatning asosini ta`minlaydi.

References:

1. G.M.Anorqulova "Ta`lim texnologiyalari". T.:Innovatsiya-Ziyo. 2021-yil.
2. S.A.Madyarova va boshq. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". T.:IQTISOD-MOLIYA. 2009-yil.

3. “TEACH ENGLISH FOR SPESIFIC PURPOSES” Sh.Kh.Kharatova - THEORETICAL AND APPLIED SCIENCE
4. Sh.S.Shodmonova, N.S.Mirsagatova, G.N.Ibragimova, M.T.Mirsoliyeva “Pedagogik texnologiyalar” . T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo`llanma. 2011-yil.
5. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva “Pedagogik texnologiya”. T.“Tafakkur bo`stoni”. 2012-yil.
6. T.Ismailov; “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART” "Экономика и социум" №3(82) 2021;
7. F.Mirzayeva “Kasbiy fanlarni o`qitishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish” . T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2013-yil.